










Nogironligi bor insonlar mashina haydashda nimalarga e’tibor berishlari kerak?

Illyustratsiya	Oson matn
	Bu maqolada sen nogironligi bor insonlar mashina haydashda nimalarga e’tibor berishlari kerakligi haqida bilib olasan.
	Sen mashina haydashda qonunda belgilangan vazifalar va majburiyatlarga amal qilishing kerak.
	**Vazirlar Mahkamasining 172-sonli** qarorda piyoda deb belgilangan insonlar ro‘yxati ko‘rsatilgan.

	• Aravachada harakatlanadigan nogironligi bor insonlar • Velosiped, mototsikl, chanada yuradigan insonlar • Bolalar aravachasini yetaklagan insonlar • Nogironligi bor insonlar aravachasini yetaklagan insonlar piyoda hisoblanadi.
	Sen mashina haydaganingda mashinangda **“Nogironligi bo‘lgan shaxs”** belgisi bo‘lishi kerak.
	Senda birinchi yoki ikkinchi guruh nogironligi bo‘lsa, sen mashina haydaganingda **nogironlikni tasdiqlovchi hujjatni** o‘zing bilan olib yurishing kerak.
	Sen mashinangni maxsus belgilar bo‘lgan joylarda to‘xtatishing mumkin.

	Sen mashinangni to‘xtatishing mumkin bo‘lgan joylardagi belgilar: • **5.15** – Sen uchun maxsus ajratilgan to‘xtab turish joyi • **7.17** – Sen haydayotgan mashina belgisi • **1.24** – Sening mashinang uchun to‘xtab turish joyi.
	Bozorlar va boshqa binolardagi mashina to‘xtash joylarning kirish va chiqish qulay bo‘lgan qismida sen uchun maxsus to‘xtash joylari tashkil qilinadi.
	Agar mashina to‘xtash joylari binolardan uzoq va noqulay joyda bo‘lsa, bino atrofida vaqtinchalik to‘xtash joylari tashkil qilinadi.
	Maxsus to‘xtash joylaridan “Nogironligi bor haydovchi mashinasi” degan belgi o‘rnatilgan mashina haydovchilari foydalanishi mumkin.

	Senda: • Birinchi va ikkinchi guruh nogironligi bo‘sa, nogironlikni tasdiqlovchi ma’lumotnoma bilan maxsus to‘xtash joylaridan foydalanishing mumkin.
	• 16 yoshga to‘lmagan nogironligi bo‘lgan farzandi bor ota-onalar bolaning pensiya guvohnomasi bilan maxsus to‘xtash joylaridan foydalanishi mumkin.
	Maxsus to‘xtash joylaridan foydalanish bepul.
	Maxsus to‘xtash joylaridagi: • yo‘l chiziqlari • yo‘l belgilarining o‘lchamlari talablarga mos bo‘lishi kerak.

	Sen aravachada mashina yo‘ldan o‘tayotganingda boshqalarga piyodalar yo‘lagidan o‘tishga xalaqit bersang, yo‘lning chetidan o‘tishing kerak.
	Haydovchi har doim oq hassa bilan ishora berayotgan ko‘zi ojiz piyodani o‘tkazib yuborishi kerak.
	Piyodalar o‘tish joyidan ko‘zi ojiz piyodalar foydalanishi mumkinligini bildiruvchi belgilar: • **7.15** • **1.20** • **5.16.1** • **5.16.2**